



# ICHKI ISHLAR UCHUN DEKORATIV SUV ASOSIDAGI MAHSULOTLAR GURUHI

## BETEK HYGIENIC PAINT SEMI-GLOSS

### MAHSULOT TAVSIFI

Antibakterial, minimal allergenli, suv asosidagi, yarim yaltiroq, artib tozalanadigan, dekorativ ichki finish bo'yoq. Yangi avlod silikonlari, silikon asosli to'ldirgichlar, pigmentlar va akril bog'lovchilar uyg'unligi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mikroorganizmlar rivojlanishini to'xtatuvchi kimyoviy modifikatsiyaga ega.

### XUSUSIYATLARI

Yuqori harorat sababli bakteriyalar rivojlanish xavfi mavjud bo'lgan joylarda — issiqlik izolatsiyasi bo'lmagan sanoat binolari, oshxonalar, ovqatlanish zallari, molxonalar, hammomlar, omborlar, tibbiyot muassasalarida bakteriyalar ko'payishining oldini olish uchun qo'llaniladi.

Maxsus formulasi va texnologiyasi tufayli sanoat binolarida bakteriya rivojlanishini oldini olishga mo'ljallangan, minimal allergenli, ipakmat ichki bo'yoq.

Betek Hygienic Paint ning silikon texnologiyasi bilan ta'minlangan yuqori mustahkamligi yangi **Color and Surface Protection Technology** bilan yanada kuchaytirilgan va eng yuqori darajaga yetkazilgan.

Suv asosli bo'lgani sababli yoqimsiz hid chiqarmaydi. Ekologik xavfsiz.

### QO'LLANILADIGAN YUZALAR

Bakteriya rivojlanishining oldini olish maqsadida mos grunt bilan birga beton, ochiq beton, suvoq, MDF, prefabrik beton panellar, g'isht, avval bo'yalgan yuzalar, shisha tolali matolar va bo'yash mumkin bo'lgan oboylarga qo'llaniladi.

Mog'or paydo bo'lish xavfini kamaytirish uchun oshxona, ovqatlanish zali, molxona, hammom, ombor, tibbiyot muassasalari, bolalar xonalari va bolalar bog'chasi devorlarida ishlatiladi.

Satin suvoq bilan ishlangan, pasta qo'llanilgan va asosiy qatlamlari to'liq tayyorlangan yuzalarda yuqori dekorativ samaradorlik ko'rsatadi.

Bo'sh va mustahkam bo'lmagan qatlamlarga bevosita qo'llanmasligi kerak.

### QO'LLASH

Bo'yoq surtiladigan yuzani kir, chang, mog'or, yog'li iflosliklar va bo'sh qatlamlardan tozalang. Yuzaning mustahkam, quruq, toza va o'z-o'zini ushlab tura oladigan holatda ekanligiga ishonch hosil qiling.

Beton, ochiq beton va yangi suvoqlangan yuzalarda **28 kun** qotish muddatini kuting, so'ng bo'sh suvoq zarrachalarini shpatel yoki shunga o'xshash usullar bilan olib tashlang. Zarurat bo'lsa, yuzani tuzating va ta'mirlash ishlarini bajaring.

Avval bo'yalgan yuzalarni (suv yoki erituvchi asosidagi bo'yoqlar) mayda donali zımpara bilan silliqlang va gruntlang. Birinchi marta ishlov beriladigan ichki suvoqlangan yuzalarda **Betek Primer** yoki **Betek Lux Primer** pigmentli gruntlaridan foydalaning.

Kuchli singdiruvchi va ko'p chang chiqaradigan yuzalarda (suvoq, ohak, oqlash, gazbeton) **Betek 1/7–1/10 Concentrated Primer** yoki **Betek Gypsum Primer** ni **bitta qatlam** qilib, taramasdan va silliqlamasdan qo'llang.

Ohak ustiga bevosita bo'yoq surtmang.



OOO "COLORLAB"  
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'g'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



Juda ifloslangan yuzalarda yopuvchanlikni oshirish uchun avval **Betek Kapatan** dog'ni yopuvchi bo'yoqdan **1 qatlam**, so'ng **Betek Lux Primer** dan **1 qatlam**, undan keyin esa **1–2 qatlam** ustki bo'yoq surting.

Bo'yoqni qo'llash va quritish davomida atrof-muhit va sirt harorati **+5°C dan +30°C gacha** bo'lishi shart.

Mahsulotni qo'llash, sog'liq, xavfsizlik va ishlov berish bilan bog'liq batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan **MSDS** va **TDS** hujjatlari [www.betekexport.com](http://www.betekexport.com) saytida mavjud.

## OGOHLANTIRISH

### SHAFFOF GRUNTLAR

Singdiruvchi va ko'p chang chiqaradigan yuzalarda (suvoq, ohak, oqlash, gazbeton) **Betek 1/7–1/10 Concentrated Primer** yoki **Betek Gypsum Primer** ni taramasdan va silliqalmasdan **bitta qatlam** qilib qo'llang.

Agar ushbu gruntlar chang chiqarmaydigan, avval bo'yalgan (suv yoki erituvchi asosidagi) yoki elim/pasta bilan ishlangan yuzalarda qo'llansa, sirtida shishasimon qatlam hosil bo'ladi. Hatto finish bo'yoq 7–8 qatlam qilib surtilgan taqdirda ham yopuvchanlik, yorilish va yopishish muammolari yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda shishasimon qatlam to'liq olib tashlanguncha silliqlash va qirib tashlashni davom ettiring.

### PIGMENTLI GRUNTLAR

Suv yoki erituvchi asosidagi bo'yoqlar bilan avval gruntlangan va bo'yalgan devor yuzalarida **Betek Primer** ni grunt yoki o'tish grunti sifatida ishlatning. Bunday gruntlar kuchli singdiruvchi va chang chiqaradigan yuzalarda qo'llanganda bog'lovchi modda yuzaga singib ketadi va natijada sirt changlanib, muammolar yuzaga kelishi mumkin.

### PASTA BILAN TEKISLANADIGAN YUZALAR

Agar devor yuzasi pasta bilan tekislanadigan bo'lsa, singdiruvchi va chang chiqaradigan yuzalarda shaffof gruntlarni taramasdan (valikni pastga faqat **bir marta** aylantirib) qo'llang. So'ng tayyor pastani (pastki va ustki bo'yoq bilan mos bo'lishi shart) surting, undan keyin **Betek Lux Primer** va oxirgi bo'yoq qatlamiga o'ting.

Agar eski bo'yoq ustiga suvoq surtilsa, yuzani tez-tez tirnash lozim, aks holda finish bo'yoq suvoq bilan birga ko'chib tushadi.

### OHAK VA BO'SH QATLAMLARNI TOZALASH

O'zini ushlab tura olmaydigan eski bo'yoq qatlamlari va bo'yoq ostidagi ohakni metall cho'tka, shpatel va/yoki spiral mexanizm yordamida olib tashlang. Yoki sinovdan so'ng **250 bar** gacha bosimli suv oqimi bilan tozalang. Oldindan sinov o'tkazmasdan yuqori bosim qo'llash yuzaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

### HAVOSIZ PURKASH

Bosim: **120–140 bar**

Soplo burchagi: **50°**

Soplo o'lchami: **0,019"**

Suyultirish: **5%**

### SUYULTIRISH

Cho'tka va valik bilan qo'llashda toza suv bilan **10% gacha** suyultirib, **2 qatlam** qilib surting.



OOO "COLORLAB"  
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'gon ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



## **QURISH VAQTI (20°C va 65% nisbiy namlikda)**

Tegib ko'rishda qurishi: **30–60 daqiqa**

Qatlamlar orasida: **4–6 soat**

To'liq qurish: **24 soat**

(namlik oshganda va harorat pasayganda qurish vaqti uzayishi mumkin)

**Eslatma:** ikkinchi qatlamni 4 soatdan oldin surtmang. Maksimal yopuvchanlik gruntlangan vaqtda va kutish muddati saqlanganda ta'minlanadi. To'liq quriguncha yuzalar sovuqdan himoyalaniishi kerak.

## **SARFI**

Bir qatlamda **55–80 ml/m<sup>2</sup>**, sirt turi, singdirish qobiliyati va tuzilishiga bog'liq.

**1 litr** bo'yoq bilan **13–18 m<sup>2</sup>** maydonni bo'yash mumkin.

Aniq sarfni aniqlash uchun sinov surtmasi bajarish tavsiya etiladi.

## **SAQLASH**

Mahsulot ochilmagan qadoqda, sovuqdan va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoyalangan, quruq va salqin joyda **2 yil** saqlanishi mumkin. Ishlatilgandan so'ng qopqog'ini darhol mahkam yoping.

## **XAVF TO'G'RISIDAGI BAYONOTLAR**

**H317** Teri allergik reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin.

## **EHTIYOT CHORALARI**

**P101** Tibbiy maslahat zarur bo'lsa, mahsulot idishi yoki yorlig'ini yoningizda saqlang.

**P102** Bolalar ololmaydigan joyda saqlang.

**P103** Ishlatishdan oldin yorliqni o'qing.

**P261** Chang, bug', gaz, aerazol va purkashni nafas orqali qabul qilishdan saqlaning.

**P280** Himoya qo'lqoplari, himoya kiyimi, ko'z va yuzni himoyalash vositalaridan foydalaning.

**P321** Maxsus davolash talab etiladi (yorliqda ko'rsatilgan).

**P363** Ifloslangan kiyimlarni qayta ishlatishdan oldin yuving.

**P333+P313** Agar terida tirnash yoki toshma paydo bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling.

**P501** Tarkib va qadoqni mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro qoidalarga muvofiq utilizatsiya qiling.

## **TEXNIK KO'RSATKICHLAR**

Yaltiroqlik: **G2 sinf**

Donacha o'lchami: **S1 sinf**

Yopuvchanlik: **2 sinf (7 m<sup>2</sup>/l)**

Nam ishqalanishga chidamlilik: **1 sinf**

*Ushbu texnik ma'lumotnoma odatda laboratoriya ma'lumotlariga asoslanganligi sababli, yuqorida yetarli darajada bayon etilmagan masalalar bo'yicha texnik mutaxassislariga murojaat qilish tavsiya etiladi.*

*Aks holda, ma'lumot yetishmasligi natijasida yuzaga kelgan xatolar uchun ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanmaydi. Kompaniya ushbu ma'lumotlarni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.*

**Ushbu mahsulot TS EN ISO 9001, TS EN ISO 14001, TS 45001, TS EN ISO 50001, TS ISO 10002 va TS EN ISO/IEC 27001 standartlariga muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lgan Betek A.Ş. kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan.**



OOO "COLORLAB"  
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'g'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88